

Korxonalarda moliyaviy risklarni boshqarishni rivojlantirish

Rizoyev Farrux Hikmatilloyevich¹

Annotatsiya: Bunday sharoitda, davlat tomonidan korxonalar xo‘jalik-moliyaviy faoliyatini tartibga solish, ularga turli imtiyozlar berish va qo‘sishimcha moliyaviy resurslar bilan ta’minalash, korxonalarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda ham ko‘plab ijobjiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Kalit so’zlar: korxonalar, bozor, risk, tadbirkorlik

Korxonalar moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etish va ularning moliyaviy barqarorligini ta’minalashda risklarni boshqarish muhim masalalardan biri sanaladi. Hammamizga ma’lumki, hozirgi kunda hukm surayotgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, ko‘plab davlatlarning iqtisodiyotiga, xususan real va moliyaviy sektor korxonalar faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Albatta, buning natijasida korxonalar xo‘jalik moliyaviy faoliyatining risklilik darajasini keskin ortib ketishini, hatto ularning bankrot holatiga tushib qolishligini ham kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. Bunday sharoitda, davlat tomonidan korxonalar xo‘jalik-moliyaviy faoliyatini tartibga solish, ularga turli imtiyozlar berish va qo‘sishimcha moliyaviy resurslar bilan ta’minalash, korxonalarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda ham ko‘plab ijobjiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: «Respublikamiz banklari tomonidan ko‘rsatilgan yordam mahsulot eksport qiladigan korxonalarning barqaror ishlashini ta’minalashda muhim rol o‘ynadi. Birgina o‘tgan yilning o‘zida bu korxonalarga aylanma mablag‘larini ko‘paytirish uchun umumiyligini miqdori 233 milliard so‘mdan iborat imtiyozli kreditlar berilgani ularga, o‘z mahsulotini eksport qilish bo‘yicha yuzaga kelgan vaqtinchalik qiyinchiliklarga qaramasdan, ishlab chiqarishning pasayishini oldini olish imkonini berdi. Dastur doirasida amalga oshirgan yana bir muhim tadbirimiz – soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddallashtirish va unifikatsiya qilish bo‘yicha xo‘jalik tuzilmalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qo‘sishimcha choralar ko‘riganidir□.

Bozor munosabatlari sharoitida har qanday mulkchilik shaklidagi korxonalar faoliyatida risklarning mavjudligi bu tabiiy holat hisoblanadi. Chunki tadbirkorlik faoliyati muayyan bir tavakkalchiliklarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bunday sharoitda korxonalarda kutiladigan daromad, foyda va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlarni ololmaslik ehtimolligi yuzaga kelishi mumkin.

Risk – bu moliyaviy kategoriya bo‘lib, korxonalarda rejalshtirilgan miqdorlarda daromad, foydani ololmaslik yoki zarar ko‘rish ehtimolligidir. Ko‘plab xorijiy va mamlakatimizdagи chop etilayotgan iqtisodiy adabiyotlarda risklarning bir necha xil turlari sanab o‘tilgan. Risklarini boshqarishni samarali tashkil etish ularni muayyan belgilari bo‘yicha aniq guruhlarga bo‘lishga bog‘liq. Risklarning ilmiy asoslangan tasnifi ularni har birining umumiyligini tizimdagи o‘rnini belgilash imkonini beradi. Iqtisodiy adabiyotlarda risklarni tasniflashning turli xil ko‘rinishlari berilgan.

¹ “NKMК” AJ Shimoliy kon boshqarmasi Avtomobil transporti boshqarmasi, Byudjetlashtirish va kontrolling byuro boshlig‘i



Bizningcha korxonalar xo‘jalik-moliyaviy faoliyatida uchraydigan risklarni quyidagi xususiyatlari bo‘yicha tasniflash mumkin.

Xo‘jalik faoliyatining shakli yoki yo‘nalishiga ko‘ra:

- tadbirkorlik riski;
- moliyaviy risk.

Tadbirkorlik riski deyilganda asosan mahsulotlar realizatsiyasi va xomashyolarni sotib olish jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklar tushuniladi.

Moliyaviy risklar deyilganda, korxonalarning boshqa moliyaviy tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan risklarni tushunish mumkin. Bularga misol qilib, korxonalarni tijorat banklari, sug‘urta kompaniyalari, investitsion kompaniyalar, fond birjalari va boshqa moliyaviy muassasalar bilan munosabatlarini kiritishimiz mumkin. Korxonalarda moliyaviy risklarni yuzaga kelishiga asosan, inflyatsion omillar, banklarda kreditlarni foiz stavkalari ortib ketishligi, qimmatli qog‘ozlarning narxining tushib ketishligi va boshqa omillar ta’sir qiladi.

Namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra barcha turdagি risklar:

- sof risklar;
- spekulyativ (chayqovchilik) risklarga bo‘linadi.

Sof risklar deyilganda, korxonalar xo‘jalik-moliyaviy faoliyatida zarar ko‘rishligi yoki hech qanday daromad ololmaslik ehtimolini tushunish mumkin.

Spekulyativ (chayqovchilik) risklarda esa, korxonaning ijobiy natijaga yoki bo‘lmasa nol (salbiy) natijaga erishishlik ehtimoli namoyon bo‘ladi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, spekulyativ risklar korxonalarning yoki daromad, foyda olishligini yoki zarar ko‘rish ehtimolligini anglatadi.

Bundan tashqari tadbirkorlik risklarini yuzaga kelish sohasiga ko‘ra tashqi va ichki risklarga bo‘lib olish mumkin. Korxonalar o‘zlarining xo‘jalik faoliyatini bevosita tashqi muhit bilan bog‘langan holda amalga oshiradilar. Albatta bunday sharoitda korxonalar xo‘jalik faoliyatiga ta’sir qiluvchi tashqi omillarni har tomonlama chiqur o‘rganish muhim hisoblanadi. Korxonalarda tashqi risklar darajasiga juda ko‘p omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bularga misol qilib, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy-iqlim risklarini ko‘rsatish mumkin. Tashqi risklarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular tadbirkorlik faoliyati natijalariga ham bevosita, ham bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Albatta, har qanday mulkchilik shaklidagi korxonalarga tashqi riskning ta’siri o‘ta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Tashqi risklar obyektiv xususiyatga ega bo‘lib, bunday risklarni tartibga solish yoki boshqarish korxona uchun qiyin kechadi. Korxonalar faoliyatida uchraydigan asosiy tashqi risklardan biri bu iqtisodiy risklardir. Iqtisodiy risklar mamlakatdagi iqtisodiy holatdan kelib chiqadi va korxonalar faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Barchamizga ma’lumki jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizdagi ko‘plab eksportga ixtisoslashgan korxonalar va xorijiy davlatlardagi aksariyat firma va kompaniyalar faoliyatida iqtisodiy riskning yuzaga kelishi kuzatildi. Albatta, bunday turdagи risklarni boshqarish yoki tartibga solish nafaqat korxona menejerlariga bog‘liq balki xalqaro bozordagi holat va boshqa davlatlardagi iqtisodiy vaziyatlarga ham bog‘liqdir.

Ichki risklar, korxonaning ichki xo‘jalik faoliyati natijasida yuzaga keladi. Bunday risklarga korxonaning ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonlari bilan bog‘liq, xodimlarning malakalari bilan bog‘liq, boshqaruv strategiyasining qanday darajada ekanligi bilan, asosiy vositalarning holati va texnika xavfsizligi bilan bog‘liq holatlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni kiritishimiz mumkin.



Moliyaviy risklarning yuzaga kelishi korxonalarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha bo‘lib, ularni asosan quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- foiz riski;
- investitsion risk;
- valuta riski;
- kredit riski;
- soliq riski;
- inflaytions risk va boshqalar.

Moliyaviy risklarni boshqarishda moliyaviy risklarni baholashning eng muhim usuli bu moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish, shuningdek, xarajatlarning maqsadga muvofiqligi hisoblanadi. Iqtisodiyotda barqarorlikni iqtisodiy tizimning qanday sharoitda bo'lishidan qat'iy nazar, o'z ish faoliyatini, ya'ni unga noqulay ekologik omillar ta'siridan keyin ham saqlab qolish qobiliyati tushunilishi kerakligini bilishingiz kerak. Barqarorlikni tahlil qilish metodologiyasi orqali turli omillar nuqtai nazaridan salbiy o'zgarishlar yuz berganda loyihaning asosiy iqtisodiy qiymatlarining o'zgarishi aniqlanadi. Masalan, tovar mahsulotini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan materiallar va xom ashyo narxлari o'zgargandan keyin mumkin bo'lgan foyda ko'rsatkichi o'rganilmoqda. Ushbu usul kiritish omillarining loyihaning yakuniy natijasiga ta'sirining yaxshi namunasi hisoblanadi. Moliyaviy risklarni miqdoriy baholash usullarini tahlil qilish jarayonida shuni ta'kidlash kerakki, tijorat tuzilmasining moliyaviy barqarorligi (holati) murakkab tushuncha sifatida qaralib, nisbiy va mutlaq ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi. kompaniyaning moliyaviy resurslarining mavjudligi, ishlatilishi va joylashishi hamda kompaniyaning iqtisodiy nuqtai nazaridan barqaror pozitsiyasini va biznes hamkorи sifatida ishonchlilagini birgalikda aniqlash. Korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimida iqtisodiy risk darajasini baholashda to'lov qobiliyati ko'rsatkichlariga alohida e'tibor berilishi mumkin. Ushbu toifani korxonaning barcha kreditorlar tomonidan bir vaqtning o'zida talablar bo'lgan taqdirda, faqat qisqa muddatli majburiyatlar bo'yicha qarzlarni to'lashga tayyorligi sifatida ko'rib chiqish tavsiya etiladi (haqiqat shundaki, uzoq muddatli to'lov muddatlari ma'lum. avans). To'lov qobiliyati ko'rsatkichlaridan foydalanish kompaniyaning hozirgi vaqtida kreditorlarni faqat o'z mablag'lari hisobidan ustuvor to'lovlar bo'yicha to'lashga tayyorligini baholash qobiliyatini nazarda tutadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalg‘etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni. 2012-yil 10-aprel.
2. Бочарев В.В. «Управление денежным оборотом предприятий и корпораций» – М.: «Финанси и статистика», 2001.
3. Антикризисное управление предприятиями: Учеб. пособие/ Под ред. А.Н. Ряховской.- М.: ИПК Госслужащих, 2001.
4. Антикризисное управление: Учебник/ Е.П.Жарковская, Б.Е. Бродский.- М.: ОМЕГА-Л, 2007.
5. Антикризисное управление: Учебник. -2-е., доп. и перераб. / Под ред. Е.М. Короткова.- М.: ИНФРА- М, 2009.- 620 с.- (Высшая образование)
6. Xusanov G’N., Tursunxodjayev M.L., Baqiyev A.R. Moliyaviy menejment. T.: Voris nashriyoti, 2006 у.
7. Поляк Г.Б. Финансовый менеджмент 2-е издание. М.: Юнити, 2008 г.
8. Е.В. Минко, А.Е. Минко. «Методы прогнозирование и исследования операций» Учебное пособие. Москва «Финанси и статистика» 2010 г – 480 стр.
9. Е.А.Гомонко, Т.Ф.Тарасова «Управление затратами на предприятии» Учебник. Москва «КНОРУС» 2009 г. 295 стр.



10. Тепман Л.Н. «Корпоративное управление. Учебное пособие. Москва «КНОРУС» 2010 г. 244 стр.
11. Tursunov Sh.A. «Moliyaviy Menejment» o‘quv qo‘llanma, Toshkent 2007.

